



THE IMPACT OF URBANIZATION PROCESSES ON SOCIAL AND HOME LIFE IN THE SURKHAN OASIS AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Jamshidjon Shokirjonovich Choriyev

Independent researcher at Termez State University

[@Jamshidjon_Choriyev](#)

Termez, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbekistan, Central Asia, anthropology, ethnography, expedition, Turkestan region, res Urbanization, Surkhan oasis, socio-domestic life, infrastructure, Progress artel, Pattakesar.

Received: 15.09.25

Accepted: 16.09.25

Published: 17.09.25

Abstract: This article is devoted to the study of urbanization processes in the Surkhan oasis at the beginning of the 20th century and their impact on the socio-domestic life of the urban population. The study examines changes in urban planning, population structure, infrastructure (water, electricity supply), transport and trade through the analysis of archival sources and scientific literature. The article emphasizes that at the beginning of the 20th century, the majority of the population of the Surkhan oasis lived in villages [1]. The results show that urbanization processes were mainly aimed at meeting the strategic and economic interests of the colonial government, in particular, the needs of Russian military authorities and industrial enterprises [9]. Due to these processes, the socio-domestic gap between the urban and rural population has further increased.

XX ASR BOSHLARIDA SURXON VOHASIDA URBANIZATSIYON JARAYONLARNING IJTIMOYIY-MAISHIY HAYOTGA TA'SIRI

Jamshidjon Shokirjonovich Choriyev

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

[@Jamshidjon_Choriyev](#)

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Urbanizatsiya, Surxon vohasi, ijtimoiy-maishiy hayot, infratuzilma, "Progress" arteli, Pattakesar.

Annotatsiya: Ushbu maqola XX asr boshlarida Surxon vohasidagi urbanizatsion jarayonlar va ularning shahar aholisining ijtimoiy-maishiy hayotiga ta'sirini tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqotda arxiv

manbalari va ilmiy adabiyotlar tahlili orqali shaharsozlik, aholi tarkibi, infratuzilma (suv, elektr ta'minoti), transport va savdodagi o'zgarishlar o'rganilgan. Maqola XX asr boshlarida Surxon vohasi aholisining aksariyat qismi qishloqlarda yashaganini ta'kidlaydi [1]. Natijalar shuni ko'rsatadiki, urbanizatsiya jarayonlari asosan mustamlakachi hukumatning strategik va iqtisodiy manfaatlari uchun, xususan, rus harbiy ma'murlari va sanoat korxonalari ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan [9]. Ushbu jarayonlar tufayli shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi ijtimoiy-maishiy farq yanada kuchaygan.

ВЛИЯНИЕ ПРОЦЕССОВ УРБАНИЗАЦИЙ НА ОБЩЕСТВЕННУЮ И БЫТОВУЮ ЖИЗНЬ В СУРХАНСКОМ ОАЗИСЕ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Джамшидjon Шокиржонович Чориев

Независимый исследователь

Термезского государственного университета

@Jamshidjon_Choriyev

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Урбанизация, Сурханский оазис, социально-бытовая жизнь, инфраструктура, артель «Прогресс», Паттакесар.

Аннотация: Статья посвящена изучению процессов урбанизации в Сурханском оазисе в начале XX века и их влиянию на социально-бытовую жизнь городского населения. В статье рассматриваются изменения в городской планировке, структуре населения, инфраструктуре (водоснабжение, электроснабжение), транспорте и торговле посредством анализа архивных источников и научной литературы. В статье подчеркивается, что в начале XX века большая часть населения Сурханского оазиса проживала в деревнях [1]. Результаты показывают, что процессы урбанизации были направлены главным образом на удовлетворение стратегических и экономических интересов колониального правительства, в частности, потребностей российских военных властей и промышленных предприятий [9]. В результате этих процессов социально-бытовой разрыв между городским и сельским населением еще больше увеличился.

Kirish. Urbanizatsiya jamiyat rivojlanishining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi va u ijtimoiy, iqtisodiy, demografik hamda madaniy sohalarida chuqur o'zgarishlarga olib keladi. XX asr boshlari O'zbekiston hududi, xususan, Surxon vohasi uchun keskin o'zgarishlar davri bo'ldi. Rossiya imperiyasi va undan keyin sovet hukumatining faoliyati mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasini tubdan o'zgartirib yubordi. Shunga qaramay, mazkur davrdagi urbanizatsion jarayonlarning mahalliy aholining kundalik-maishiy turmushiga ta'siri ilmiy adabiyotlarda yetarlicha o'rganilmagan.

Mavjud adabiyotlar (Ziyayeva [4], Qobilov [5], Fomchenko [8]) asosan hududiy ma'muriy o'zgarishlar va iqtisodiy tizimdagi islohotlarni yoritgan bo'lsa-da, urbanizatsiyaning oddiy aholi hayotiga qanday ta'sir ko'rsatganiga doir tadqiqotlar cheklangan. Ushbu tadqiqotning maqsadi XX asr boshlarida Surxon vohasidagi shaharsozlik va urbanizatsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va bu o'zgarishlar aholi turmushining asosiy jihatlari (suv ta'minoti, elektrlashtirish, transport, maishiy xizmatlar) qanday ta'sir etganini tahlil qilishdan iborat. Bu tadqiqot mintaq tarixini tushunishga, shuningdek, shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi ijtimoiy tengsizliklarning ildizlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Metodlar. Ushbu tadqiqot manbaaviy tahlilga asoslangan sifatli tadqiqot (qualitative research) hisoblanadi. Maqola XX asr boshlarida Surxon vohasidagi urbanizatsiya jarayonlarini o'rganish uchun quyidagi manbalardan foydalanadi.

1. O'zbekiston Milliy davlat arxivi (O'z MA, fond: 2, 3, 86, 837) [2, 6, 9, 18, 19] va Surxondaryo viloyati davlat arxivida (fond: 5, 20, 322) [10, 17, 20, 21, 22, 23, 24] saqlanayotgan hujjatlar, xususan, ma'muriy hisobotlar, iqtisodiy ma'lumotlar va rasmiy xatlar o'rganildi.

2. N. Xanikov [3], D. Ziyaeva [4], E. Qobilov [5, 7], T. To'rayev [12], A. To'xtayev [13] kabi mahalliy va xorijiy olimlarning monografiyalari, ilmiy maqolalari, shuningdek, davriy nashrlar ("Ilg'or Surxon uchun" [14], "Pravda Vostoka" [25] gazetasi) tahlil qilindi.

Olingan ma'lumotlar qiyosiy-tarixiy tahlil, sinxron va diaxron yondashuvlari asosida qayta ishlangan. Bu metodologiya urbanizatsiya jarayonlarining nafaqat o'zgarishlar ko'lamini, balki ularning sabab va oqibatlarini ham aniqlash imkonini beradi.

Natijalar. Manbalar tahlili asosida, XX asr boshlarida shaharsozlik jarayonlarida o'ziga xos o'zgarishlar bo'lganligini kuzatish mumkin. Jumladan, bu davrda janubiy vohalarda Termiz, Boysun, Sherobod kabi ma'muriy markaz o'rnidagi shaharlar mavjud edi. Boysun shahrida hunarmandlar mahallalari, temirchilik, zargarlik kabi hunarmandchilik sohalarida juda yaxshi rivojlanib, 5 mingdan ortiq aholi xo'jaliklari istiqomat qilganligi ta'kidlab o'tilgan [3]. Urbanizatsion jarayonlarida aholining ijtimoiy turmush darajasini yaxshilash uchun ularni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash va sug'orish tizimini jadallashtirish masalalariga ham e'tibor

qaratila boshlandi. Bunday siyosatdan ko'zlangan bosh maqsad esa avvalo agrar siyosat, ya'ni paxtachilik masalasini hal etish edi [5]. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Surxondaryo vohasi hududidagi Termiz hamda Pattakesar manzilgohlari, shuningdek, Qarshi shahri atrofidagi manzilgohlar asosan rus harbiy ma'murlari joylashgan manzilgohlar hisoblangan. Shu sababli XX asr boshlarida asosiy suv ta'minoti hisoblangan Pattakesar hamda Salovat arig'ini ta'mirlash ishlariga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi [6].

Urbanizatsion jarayonlarining jadallashuvi natijasida asta-sekinlik bilan aholi soni ham ortib bora boshladi. Dastlab ruslar XIX asrning 90-yillarida eski Termiz yaqinidagi Pattakesar qishlog'iga kelib joylasha boshlagan [8]. 1914-yilga kelib Pattakesar (Termiz)da rus millatiga mansub aholi soni 2500 dan ortiqni tashkil etgan edi. Rus millatiga mansub aholi vakillari keyinchalik temir yo'llar bilan bog'langan ma'muriy markazlar (shahar)da tayyor uy-joylarga ko'chirib keltirila boshlandi. Ularning asosiy faoliyati sanoat korxonalari hamda temir yo'l liniyalarida xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan. Shu bilan birga, hukumat tomonidan ularning ijtimoiy turmush sharoitlariga ko'proq e'tibor qaratilganligi bois, qishloq joylarda istiqomat qiluvchi aholi vakillariga nisbatan ko'proq afzalliklarga ega edi [9].

Surxon vohasida shaharlarning o'rni tobora mustahkamlanib, sanoat korxonalarining transport, elektr energiyaga bo'lgan talabi kundan-kunga osha boshladi. 1926-yilda Termiz shahrining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida davlat mablag'i hisobidan 30 ming rublga quvvati 50 ot kuchiga ega bo'lgan dizel dvigateli sotib olindi [11]. 1932-yilga kelib, Termiz shahrida ilk elektr tarmog'i markazi vujudga keldi. 1935-yilda okrugda 10 ta elektrostansiyalar mavjud bo'lib, ular 3 million 400 ming kv. soat elektr energiyasi ishlab chiqargan [14].

Maishiy xizmatlar ham rivojlangan bo'lsa-da, ularning samaradorligi cheklangan edi. 1936-yilda Jarqo'rg'on tumanida sartaroshxona, oshxona, tikuvchilik sexi kabi artellar tashkil qilingan [21]. Biroq, artellardagi ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori aholi soniga nisbatan ancha kam edi [23]. Masalan, "Progress" artelining etikdo'zlik ustaxonasiga 13 juft etik poyafzaliga buyurtma tushgan. Chorvador aholi esa o'zlariga qoramol va qo'y-echki terilaridan "choriq", "mo'kki" va "popish" deb nomlangan poyabzallarni tikkan hamda undan foydalangan.

Muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari XX asr boshlaridagi urbanizatsiya jarayonlarining Surxon vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini chuqurroq anglash imkonini beradi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bu jarayonlar xalqning kundalik turmushini yaxshilashdan ko'ra, avvalo mustamlakachi ma'muriyatning strategik maqsadlariga xizmat qilgan.

Suv va elektr ta'minoti kabi infratuzilmaning rivojlanishi asosan rus harbiy garnizonlari va yirik markazlar foydasiga bo'lgan [25]. Bu holat shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi maishiy

turmush darajasidagi farqni chuqurlashtirgan. Hatto shaharlarda ham elektrlashtirish darajasi past bo'lib, Termiz yo'laklarining yarmi kerosin moyi bilan yoritilgan [25].

Artellarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning kamligi va yuqori narxi urbanizatsiyaning mahalliy aholining iste'mol madaniyatiga sezilarli ta'sir ko'rsata olmaganini tasdiqlaydi. Ko'pchilik an'anaviy turmush tarzini saqlab qolgan, chunki artellardagi mahsulotlar oddiy dehqonlar va kambag'allar uchun qimmat bo'lgan [23].

Ushbu tadqiqot shaharsozlik va urbanizatsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, uning asosan hukumatning ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lganini va maishiy xizmatlar sohasida uzoq vaqt davomida an'anaviy usullar saqlanib qolganini ochib beradi.

Bu tadqiqotning asosiy cheklovi shundaki, mavjud arxiv manbalarida qishloq aholisining kundalik hayoti, maishiy sharoitlari va urbanizatsiya jarayonlariga munosabati haqida to'liq ma'lumotlar cheklangan. Kelajak tadqiqotlar ushbu bo'shliqni to'ldirish maqsadida turli millatlarga mansub aholining integratsiyasi va uning ijtimoiy oqibatlarini o'rganishga qaratilishi lozim.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, XX asr boshlarida Surxon vohasida urbanizatsion jarayonlar sodir bo'lgan, ammo ular bir tomonlama xarakterga ega bo'lgan. Shaharlarning infratuzilmasi va iqtisodiyoti rivojlangan bo'lsa-da, bu o'zgarishlar asosan hukumatning strategik manfaatlari va ma'lum bir ijtimoiy guruhlariga xizmat qilgan. Urbanizatsiya aholi hayotida jiddiy o'zgarishlarga olib kelgan bo'lsa-da, bu o'zgarishlar shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi ijtimoiy farqlarni kuchaytirdi. Shuning uchun, bu davrdagi urbanizatsiya jarayonlarini faqatgina iqtisodiy rivojlanish omili sifatida emas, balki ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida ham baholash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Материалы по районированию Узбекистана. Вып. II. – Самарканд: ЦКР УзССР, 1926. – С. 124.
2. O'z MA, 2-fond, 1-ro'yxat, 351-ish, 17-varaq.
3. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – С. 145 – 148.
4. Ziyaeva D. O'zbekiston shaharlari XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida. – Toshkent, 2013. – B 67.
5. Qobilov.E. Surxon vohasi xo'jaligi. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B. 48.
6. O'z MA, 3-fond, 1-ro'yxat, 133-ish, 37-varaq.
7. Qobulov.E. Rossiya imperiyasining Surxon vohasi sug'orish tizimidagi tadbirlari. O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarning muamolari. Ilmiy-amaliy maqolalar to'plami. VII jild – Toshkent, 2016. – B. 75.

8. Фомченко А.П. Русские поселения в Бухарском эмирате. – Ташкент, 1958. – С. 17.
9. O‘z MA, 837-fond, 1-ro‘yxat, 1277-ish, 71-varaq.
10. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, Jarqo‘rg‘on tumani bo‘limi, 20-fond, 1-ro‘yxat, 46-ish, 43-varaq.
11. O‘z MA, R-837-jamg‘arma, 3-ro‘yxat, 162-ish, 48-varaq.
12. To‘rayev T. Energetikamiz tarixiga bir nazar. – Termiz.: 2007. — B. 37.
13. To‘xtayev A. Ulug‘ Vatan urushigacha bo‘lgan yillarda Surxondaryoda elektrlashtirish // Termiz davlat universiteti professor-o‘qituvchilarining XXV ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Termiz, 1993. – B. 100.
14. Ilg‘or Surxon uchun. – 1937-yil 16-yanvar.
15. Azimov M. Termiz tarixi (Eng qadimgi davrlardan XIX asr boshigacha). – Qarshi.: Nasaf, 2001. – B.150.
16. O‘sha joyda.
17. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 322-fond, 1-ro‘yxat, 12-ish, 2-varaq.
18. O‘z MA, R-86-fond, 1-ro‘yxat, 2393-yig‘ma jild, 31-varaq.
19. O‘z MA, R-837- fond, 3-ro‘yxat, 162-ish, 54-varaq.
20. Surxondaryo viloyati Davlat arxivi, 5-fond, 1-ro‘yxat, 100-ish, 1-varaq.
21. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, Jarqo‘rg‘on tumani bo‘limi, 20- fond, 1-ro‘yxat, 102-ish, 12-varaq.
22. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, Jarqo‘rg‘on tumani bo‘limi, 20- fond, 1-ro‘yxat, 102-ish, 305- varaq.
23. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 5- fond, 1-ro‘yxat, 98-ish, 19-varaq.
24. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, Denov tumani bo‘limi, 6-fond, 1-ro‘yxat, 5-ish, 105-varaq.
25. Правда Востока. – 1936. – 18 февраля.
26. Surxondaryo okrugi ijroiya qo‘mitasining prezidiumi majlisining Majburiy qarori 22 mart 1939 yil №1., Ilg‘or Surxon uchun.